

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARNING POETIK FUNKSIYASINI O'RGANISHDA O'ZBEK MILLIY KORPUSINING IMKONIYATLARI

Xoliyorova To'lg'anoy Ravshan qizi

Tadqiqotchi.

e-mail: xoliyorovatulganoy@gmail.com, tel:

+998946170632

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22763423>

Annotatsiya: Mazkur tezisda Alisher Navoiy she'riyatidagi badiiy san'atlarni o'rganishda o'zbek milliy korpusidan foydalanishning ilmiy ahamiyati yoritiladi. Korpus texnologiyalari mumtoz badiiy matnlarni tizimli tahlil qilish, poetik birliklarning qo'llanish xususiyatlarini aniqlash hamda ularning badiiy-estetik vazifasini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

Аннотация: В данной статье освещается научное значение использования Национального корпуса узбекского языка при изучении художественных средств в поэзии Алишера Навои. Корпусные технологии позволяют системно анализировать классические поэтические тексты, выявлять особенности употребления поэтических единиц, а также научно оценивать их художественно-эстетические функции.

Abstract: This paper highlights the scientific significance of using the Uzbek National Corpus in the study of poetic devices in the poetry of Alisher Navoi. Corpus technologies enable the systematic analysis of classical poetic texts, the identification of the usage patterns of poetic units, and the scientific evaluation of their artistic and aesthetic functions.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, badiiy san'at, poetika, o'zbek milliy korpusi, korpus lingvistikasi, lingvopoetika.

So'nggi yillarda filologiya fanida raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Xususan, korpus lingvistikasi metodlari badiiy matnlarni yangi ilmiy yondashuv asosida o'rganish imkonini yaratmoqda. O'zbek milliy korpusining shakllanishi mumtoz adabiy merosni lingvistik va adabiy jihatdan kompleks tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi.[1,B.8]

Asosiy qism. Alisher Navoiy she'riyati o'zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak namunasi bo'lib, unda tashbeh, isti'ora, talmeh, tazod, tajnis, tanosub, husni ta'lil kabi badiiy san'atlar poetik mazmunni shakllantiruvchi asosiy vositalardan hisoblanadi. [2.B.34] Mazkur san'atlar yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularni korpus texnologiyalari asosida tizimli va statistik jihatdan o'rganish masalasi hali yetarlicha tadqiq etilmagan.

Korpus asosida olib boriladigan tahlil badiiy san'atlarning matndagi qo'llanish chastotasini, ularning turli janrlarda namoyon bo'lish xususiyatlarini hamda poetik funksiyasini aniq dalillar asosida yoritish imkonini beradi. Bunda Alisher Navoiyning g'azal, doston va boshqa asarlarida qo'llangan poetik vositalar elektron korpus materiallari yordamida tahlil qilinadi. Natijada badiiy san'atlarning estetik vazifasi, uslubiy o'rni hamda muallif individual uslubini shakllantirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslanadi. Mazkur yondashuv nafaqat Navoiy poetikasini yangi metodologik asosda tadqiq etish, balki o'zbek adabiyotshunosligida korpus tadqiqotlari yo'nalishini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, korpus texnologiyalarini mumtoz adabiyot namunalariga tatbiq etish kelgusida badiiy san'atlarni avtomatik aniqlash, ularni semantik va poetik jihatdan tavsiflash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa.

Alisher Navoiy she'riyatidagi badiiy san'atlarni o'zbek milliy korpusi asosida o'rganish adabiyotshunoslikda zamonaviy tadqiqot metodlarini joriy etishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv badiiy san'atlarning poetik funksiyasini chuqurroq ochib berish bilan birga, korpus adabiyotshunosligi rivojiga ham nazariy va amaliy hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
2. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
3. Navoiy A. Mezon ul-avzon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
4. Navoiy A. Majolis un-nafois. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
5. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan.
6. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: O'qituvchi.
7. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar.
8. Abjalova M. O'zbek milliy korpusi va mualliflik korpuslarini yaratish masalalari..